

# FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

## AQSH VA SSSR O'RTASIDAGI SOVUQ URUSHNING ILIQLIK DAVRI

Gulyamov Alisher Azizovich  
Osiyo Xalqaro Universiteti  
Tarix va faliologiya kafedrası o'qituvchisi  
[aligulyamov1997@gmail.com](mailto:aligulyamov1997@gmail.com)

Ashurov Daler Sherali o'g'li  
Osiyo Xalqaro Universiteti  
1-T-24 guruh talabasi  
[Ashurovdaler778@gmail.com](mailto:Ashurovdaler778@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSH va SSSR davlatlari o'rtasida yuz bergan "sovuq urush" siyosati, urushdan keyin G'arb davlatlari hayotida yuz bergan o'zgarishlar.

**Kalit so'zlar:** Ikkinchi jahon urushi, AQSH, Nyunbergdagi sud jarayonlari, Yevropani tiklash dasturi, G'arb davlatlari, "Sovuq urush", Marshall rejasi, SSSR, "Qurollanish poygasi", Ikki harbiy- siyosiy ittifoq, Qo'shilmalik harakati, Varshava shartnomasi, BMT, "Qayta qurish siyosati", Tashqi aloqalar, keskinliklarning yumshashi, mustaqil davlatlarning tashkil topishi.

1970-yillarda bir-biriga dushman bo'lgan ikki lager o'rtasidagi "sovuq urush"ga asoslangan siyosat inqirozga uchray boshladi. Butun "sovuq urush" yillari mobaynida AQSH ham, SSSR ham o'zaro kelishmovchilik yuz berganda g'alabani ta'minlaydigan kuch yig'a olmadilar. "Sovuq urush"ning dastlabki yillarida AQSH yadro quroli monopoliyasiga ega, SSSR esa boshqa turdagi qurollanish bo'yicha ustunlikka ega edi. Deyarli bir vaqtning o'zida AQSHda Sovet Ittifoqida vodorod bombalari yaratildi. Ular yadro quroliga nisbatan 1000 barobar kuchli edi. Yadro qurolini yetkazib beruvchi qit'alararo ballistik raketalar, strategik bombardimonchi samolyotlar atom, suv osti kemalari ham yaratildi<sup>1</sup>. Birinchi marta AQSH hududi ham Sovet Ittifoqi kabi yaxshi ximoya qilinmaydigan maydonga aylandi. Yadro arsenalining ko'paytirilishi har ikki davlat uchun katta xavf tug'dirardi. Taxminiy hisob- kitoblarga qaraganda, 500 ta yadro zarbasi berilgandi, AQSH va SSSR aholisining 1/3 qismi halok bo'lib,

---

<sup>1</sup> Kichkilov.H.Fayzullayeva.M.Eng yangi tarix.(1945-2010) o'quv qo'llanma.Toshkent. "Yangi nashr".2011.402.B.

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMYI ONLAYN KONFERENSIYA

75% ga yaqin sanoat inshootlari yo'q qilinardi. Har ikkala davlat hududi radiaktiv cho'lga aylanardi. Ko'plab olimlarning ta'kidlashicha, talofat ko'rsatuvchi zarba 300 ta yadro quroli birvakayiga ishga solinganda, yuqoridagi talofat ro'y berar ekan. Millionlab aholi halok bo'lishidan tashkari, atmosferaga minglab tonna chang va kul ko'tariladi. Yer juda ko'p yillar davomida quyosh nuridan maxrum bo'ladi, yadro qishi boshlanadi. Okean va dengizlar muzlab qoladi, hatto ekvatorida ham xarorat o'nlab gradusga tushib ketadi. 1960-yillarda AQSHda 4000 dan ortiq, Sovet Ittifoqida 500 ga yaqin yadro quroli mavjud edi. 20 yildan keyin bu raqamlar 15 ming va 10 ming bilan almashdi<sup>2</sup>. Bunday sharoitda har ikki davlat, o'rtadagi kelishmovchilikka qaramasdan, yadro halokatining oldini olish haqida o'ylay boshladilar. Xalqaro munosabatlar tabiatidagi tub burilishlar 80-yillarning ikkinchi yarmi – 90-yillar boshida ro'y berdi. SSSR hukumati tepasiga yangi rahbarlarning kelishi Sovet tashqi siyosatini yangicha fikrlash tamoyillari asosida keskin o'zgartirishga yo'l ochib berdi. Xavfsizlik ko'p narsani o'z ichiga olishi va avvalo siyosiy vositalar bilan ta'minlanishi lozim deya e'tirof etildi. "Umumyevropa uyi" g'oyasi keng rivojlandi va jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Evropada xavfsizlik va birdamlik bo'yicha tashkilotning roli sezilarli darajada oshdi. Bu davrga kelib SSSR va AQSH o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yaxshilandi. Har ikkala tomon ham bir-biriga dushman sifatida qaramaydigan bo'ldi. Sovet-Amerika aloqalarining yaxshilanishi natijasida yadro va oddiy qurollarni katta miqdorda qisqartirish yuzasidan bir qator muhim shartnoma va kelishuvlar imzolandi. 1960-yilda NATO dan Fransiya va Gretsiya chiqib ketdi. SENTO, SEATO ittifoqlari ham parokanda bo'ldi. Urushdan keyingi inqirozdan chiqib olgan G'arbiy Yevropa davlatlari iqtisodiy o'sishdan ruxlangan holda tashqi iqtisodiy aloqalar o'rnatish harakatiga tushdilar. Biroq ikki harbiy blok qarama-qarshiliklari sharoitida raqiblar bilan savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy aloqalar o'rnatish juda mushkul bo'lib, qattiq chegaralashlar mavjud edi.

1970-yillar boshida, harbiy ekspertlarning hisoblab chiqishlaricha, yadro zarbasi berilgan vaqtda g'alaba qilishning hech iloji yo'q ekan, chunki raqib har qanday sharoitda ham qarshi zarba berishga ulguradi. Hududiy nizolar va urushlar bo'lishi mumkin edi, lekin ushbu kelishmovchiliklar katta urushga aylanib ketishining oldini olishdan har ikkala davlat ham manfaatdor edi. 1960-1970 yillarga kelganda esa mustaqil tinchliksevarlik siyosati keng quloq yoydi.

---

Д.В. Стрельцов "СИСТЕМА 1955 ГОДА": Внешняя И Внутренняя Политика Японии Эпохи Холодной Войны". Москва. Издательство восточной литературы. 2019. В. 211.<sup>2</sup>

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMYI ONLAYN KONFERENSIYA

Bu siyosatni AQSH va Sovet Ittifoqidan norozi bo'lgan yevrokommunistlar olib borardi. Asosiy ziddiyat bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan harbiy bloklar bilan bog'liq edi. U rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolardan biri bo'lib, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy qiyinchiliklar manbasi ham edi. Qurollanish poygasi va qurolsizlanish muammolari tug'risida so'z ketganda, oliy darajadagi Sovet-Amerika muzokaralari va ularning natijalari xususida to'xtab o'tmay iloj yo'q. Juda katta tanaffusdan so'ng SSSR va AQSh davlatlari rahbarlarining Jeneva, Reykyavik, Moskva va Vashingtonda oliy darajadagi uchrashuvlari bo'lib o'tdi<sup>3</sup>. 1985-yil 19-21 noyabr kunlari Jenevada KPSS MQ Bosh sekretari M.S. Gorbachyovning AQSh Prezidenti R.Reygan bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda xavfsizlikning eng muhim masalalarini muxokama etib, SSSR bilan AQShning tinchlikni saqlash borasidagi mas'uliyatlari ta'kidlandi, "yadro urushi"ga hech qachon yo'l qo'ymaslik kerakligi haqida fikr bildirishdi.

Ikki davlat rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi 1987-yil 7-10-dekabr kunlari Vashingtonda bo'lib o'tdi. Ikkala davlat rahbari o'rta va qisqa masofaga uchiriladigan raketalarini tugatishga oid shartnomani imzoladilar. Tomonlar o'rta va qisqa masofaga uchiriladigan raketalariga oid shartnoma qoidalarini rivojlantirib, shuning zamirida strategik hujum qurollarini cheklash va qisqartirish to'g'risida muzokaralar olib borishga kelishib oldilar. 1988-yil 28-mayda SSSR Oliy Soveti prezidiumi o'rta va qisqa masofaga uchiriladigan raketalarni tugatish to'g'risidagi shartnomani ratafikatsiya qildi. 1988-yil 28-maydan 2-iyungacha Moskvada SSSR va AQSh davlat rahbarlarining oliy darajadagi 4-uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda oldin qabul qilingan qarorga amal qilish yana bir bor ta'kidlanib, strategik hujum qurollarini qisqartirishni nazorat qilishga kelishib olindi. 1989-yil 17-yanvarda Yevropadagi 33 davlat hamda AQSh va Kanada davlatlarining Vena uchrashuvi tomonidan yakunlovchi hujjatning qabul qilinganligi Yevropa uchun, shuningdek, Sharq va G'arb davlatlari uchun tub burilish bo'ldi. Bu davlatlar Atlantikadan Ural tog'igacha bo'lgan masofada Qurolli Kuchlar va oddiy qurollarni qisqartirish zarur deb topdilar<sup>4</sup>. Lekin Fransiya Xukumati SSSR va AQSh o'z yadroviy qurollarini keskin qisqartirmasa, yadroviy qurolsizlanish masalasi bo'yicha muzokaralarga qatnashmaydi degan fikrni aytdi. 1988-yil 1-yanvarda SSSR va AQSh ixtiyorida qancha strategik qurollar mavjudligi aniq edi: SSSRda 10 ming, AQSh da esa 14- 16 ming. 1987-yil 8-dekabrda SSSR va AQSh o'rtacha va kamroq olislikka

<sup>3</sup> Оскар Санчес-Сибони "Красная глобализация. Политическая экономия холодной войны от Сталина до Хрущева "Библиороссика", 2014.В.26.

<sup>4</sup> Colin S. Gray. "How Has War Changed Since the End of the Cold War?". May 2004.В.12.

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMYI ONLAYN KONFERENSIYA

uchuvchi raketalarining ma'lum qismini tugatish to'g'risidagi Shartnomaga ko'ra, SSSR ana shunday raketalarining 1759 tasini, AQSh esa 859 tasini tugatishga kelishib olindi. SSSR fashistlar Germaniyasini mag'lubiyatga uchratishda asosiy rol o'ynaydi. Biroq g'alaba katta talafotlar hisobiga qo'lga kiritildi. Chunonchi, SSSR ning 27 mln fuqarosi halok bo'ldi. Halok bo'lganlarning 11,5 mlnga yaqini askarlar edi. Bundan tashqari, SSSR milliy boyligining uchdan bir qismini yo'qotdi. Sanoatning xalq iste'moli mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi keskin kamaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi urushdan avvalgi darajaga nisbatan 40% foizga kamaydi<sup>5</sup>. Keyingi voqealar shuni ko'rsatib turibdiki, amalga oshirilgan tadbirlar yetarli bo'lmagan ekan. Bu davlatlarning keng xalq ommasida hukumat faoliyatidan norozilar hali ham topiladi. Bundan tashqari, inqiroz sharoitida so'lg'oyalarning va SSSR boshchiligidagi kommunistik tuzumning tanazzulga yuz tutishi oqibatida, 80-90-yillarga kelib kommunistik harakat jiddiy siyosiy kuch sifatida barham topdi. Ikkinchi guruh davlatlari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar jahon ijtimoiy-siyosiy sahnasidan izsiz yo'qoldi. 1960-yil 14-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi mus-tamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risida Deklaratsiya qabul qildi. Bu esa dunyo miqyosida mustamlakachilikni tugatish uchun zarur xalqaro-huquqiy baza yaratdi. BMT yadro urushi xavfini kamaytirishda katta rol o'ynadi. 1981-yili BMT Bosh Assambleyasi "Yadro katastrofasining oldini olish to'g'risida" va 1983-yili "Yadro urushini qoralash" haqida deklaratsiya qabul qildi<sup>6</sup>. Unda qat'iy ravishda yadro urushidan xalos bo'lish g'oyasini targ'ib qilish muhokama qilindi. BMT pozitsiyasi AQSH va SSSR o'rtasida bir qator muhim bitimlar qabul qilinishiga sabab bo'ldi va yadro xavfidan uzoqlashishga yordam berdi. 1990-1999-yillar BMT va xalqaro huquq o'n yilligi davri, deb e'lon qilindi. Ilgari hukmronlik qilgan kuch huquqi o'rniga jahonda gumanizm va adolatga asoslangan huquq kuchi tamoyili o'rnatildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Amerika Rossiya bilan yuzma-yuz: rus-amerika munosabatlari qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha. N.Y., 1950. B. 277.

<sup>5</sup> Анатолий Грамико "Истоки и влияние холодной войны на мировую политику" Москва. Центрполиграф, 2015, B-7.

<sup>6</sup> Joshua R. Itzkowitz SHifrinson. "Deal or No Deal? The End of The Cold War and the U.S. Offer to Limit NATO Expansion". Washington Quarterly. 2019. B-12.

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMYI ONLAYN KONFERENSIYA

2. Colin S. Gray. "How Has War Changed Since the End of the Cold War?". May 2004
3. Frank Schimmelfennig. "Multilateralism in Post-Cold War NATO: Functional Form, Identity-Driven Cooperation". Paper for AUEB International Conference on "Assessing Multilateralism in the Security Domain", 3-5 June 2005, Delphi, Greece.
4. Joshua R. Itzkowitz SHifrinson."Deal or No Deal? The End of The Cold War and the U.S. Offer to Limit NATO Expansion".Washington Quarterly.2019
5. Kichkilov.H.Fayzullayeva.M.Eng yangi tarix.(1945-2010) o'quv qo'llanma.Toshkent."Yangi nashr".2011.
6. Анатолий Грамико "Истоки и влияние холодной войны на мировую политику" Москва. Сентрполиграф,
7. Оскар Санчес-Сибони "Красная глобализация. Политическая экономия холодной войны от Сталина до Хрущева "Библиороссика", 2014.